

USING LOGICAL EXERCISES AND GAMES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**Saidova Kumush Bekjon qizi**

1st year master's student, Department of Theory of Primary and
Preschool Education, Samarkand State Pedagogical Institute
saidova5752@gmail.com

Annotation

This article examines the pedagogical foundations of using logical exercises and didactic games in the educational process. It highlights their role in developing students' thinking abilities and improving the effectiveness of teaching. Logical exercises are considered an important didactic tool for developing analytical thinking, problem-solving skills, and increasing students' motivation to learn. The article also analyzes the types of logical games used in primary education, the methodology for their implementation, and their pedagogical effectiveness.

Keywords

educational process, logical thinking, didactic games, logical exercises, pedagogical technologies, primary education, interactive methods, creative thinking.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik asoslari, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mantiqiy mashqlar o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quv faoliyatiga qiziqishini oshirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mantiqiy o'yinlarning turlari, ularni tashkil etish metodikasi hamda pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

ta'lim jarayoni, mantiqiy tafakkur, didaktik o'yinlar, mantiqiy mashqlar, pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, kreativ fikrlash.

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические основы использования логических упражнений и дидактических игр в образовательном процессе. Особое внимание уделяется их роли в развитии мышления учащихся и повышении эффективности обучения. Логические упражнения рассматриваются как важное дидактическое средство формирования аналитического мышления, навыков решения проблемных ситуаций и повышения учебной мотивации. В статье также анализируются виды логических игр, используемых в начальном образовании, методика их организации и педагогическая эффективность.

Ключевые слова

образовательный процесс, логическое мышление, дидактические игры, логические упражнения, педагогические технологии, начальное образование.

Kirish.

Ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda kreativ tafakkurini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va axborot

texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish yetarli emas, balki ularda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda tafakkur jarayonlari shakllanadi va bilim olishga nisbatan barqaror motivatsiya hosil bo'ladi. Shu sababli ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar fikrlash operatsiyalarini amalga oshirishni o'rganadilar, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha o'quvchilarning faolligini to'liq ta'minlay olmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Mantiqiy mashqlar o'quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda o'quv faoliyatiga qiziqishini oshiradi.

Mazkur tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- *pedagogik kuzatish;*
- *tahlil va sintez usullari;*
- *pedagogik tajriba;*
- *ilmiy adabiyotlarni o'rganish;*
- *taqqoslash va umumlashtirish metodlari.*

Ushbu metodlar yordamida mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi o'rganildi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari

Psixolog va pedagog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, mantiqiy tafakkur insonning muammolarni hal qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Mantiqiy tafakkur quyidagi fikrlash operatsiyalariga asoslanadi:

- *tahlil qilish;*
- *taqqoslash;*
- *umumlashtirish;*
- *xulosa chiqarish.*

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ushbu fikrlash operatsiyalarini rivojlantirish uchun turli mantiqiy mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi hamda ularning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mantiqiy mashqlarning pedagogik ahamiyati

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Axborot oqimining tezlashuvi va bilimlarning yangilanib borishi o'quvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida mantiqiy mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tabiiy va samarali o'quv faoliyati shakli hisoblanadi. O'yin orqali o'quvchilar murakkab bilimlarni osonroq o'zlashtiradilar, o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar va guruh bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mantiqiy mashqlar o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarga muammoni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi. O'yin elementlari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning bilim olish jarayonidagi faolligini kuchaytiradi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, mantiqiy mashqlar tizimli ravishda qo'llanilgan darslarda

o'quvchilarning bilim darajasi va fikrlash tezligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Axborot oqimining tezlashuvi va bilimlarning yangilanib borishi o'quvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida mantiqiy mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tabiiy va samarali o'quv faoliyati shakli hisoblanadi. O'yin orqali o'quvchilar murakkab bilimlarni osonroq o'zlashtiradilar, o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar va guruh bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mantiqiy mashqlar o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarga muammoni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi. O'yin elementlari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning bilim olish jarayonidagi faolligini kuchaytiradi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, mantiqiy mashqlar tizimli ravishda qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning bilim darajasi va fikrlash tezligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Axborot oqimining tezlashuvi va bilimlarning yangilanib borishi o'quvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida mantiqiy mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tabiiy va samarali o'quv faoliyati shakli hisoblanadi. O'yin orqali o'quvchilar murakkab bilimlarni osonroq o'zlashtiradilar, o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar va guruh bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mantiqiy o'yinlar.

Boshlang'ich sinf darslarida quyidagi mantiqiy o'yinlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. *"Ortiqcha elementni top"*

Bu o'yin o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. *"Mantiqiy zanjir"*

Berilgan so'zdan kelib chiqib keyingi mantiqiy bog'langan tushunchani topish vazifasi beriladi.

3. *"Topqirlar bellashuvi"*

Guruhlar o'rtasida o'tkaziladigan mantiqiy savollar va masalalar asosidagi o'yin.

4. *"Kim tezroq topadi?"*

Tezkor fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o'yin.

O'tkazilgan pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshadi. Ular dars jarayonida faol ishtirok etadilar hamda o'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirishga harakat qiladilar.

Xulosa.

Mantiqiy mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirib, ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida mantiqiy mashqlar va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagoglar darsni tashkil etishda interfaol metodlar bilan bir qatorda mantiqiy mashqlar va o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон” -2017 йил.14 январь.104 бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон” -2017 йил.14 январь.104 бет.
3. Vygotskiy, L. S. Psixologiya va pedagogika. – Moskva, 1984.
4. Piaget, J. Intellektual rivojlanish psixologiyasi. – Parij, 1970.
5. Mo‘minova D.D., Sharopova G.Sh., Egamov A.I., Mirzayeva M.A. *Matematika darslarida mantiqiy masalalar yechish.* — “Ta’lim, fan va innovatsiyalar” jurnali, 2024
6. Mirzaahmedov M., *Muammoli o‘qitish texnologiyasi va uning o‘quvchi tafakkuriga ta’siri.* — Toshkent, TDPU.
7. Xolmurodova S., *O‘quv jarayonida muammoli yondashuv asoslari.* — Samarqand: SamDU, 2019.
8. Internet saytlari:
9. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
10. www.ziynet.uz – Ta’lim portali